


XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TA'RIFI

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni
(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

jamiga nisbatan ulushi



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2024-yil yanvar-mart oylarida)


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar-mart oylarida, birlikda)

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati, foizda



2024-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar 1 996 tani 2023-yilning mos davri bilan solishtirilganda 115 taga kamayganligini ko'rish mumkin.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2023-yilning mos davri bilan solishtirilganda, oilaviy korxonalar soni 17 taga ko'paygan.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumotlar

2024-yil 1-aprel holatiga ko‘ra, birlikda

Shahar va tumanlar kesimida


Nurobod t.	340
Samarqand t.	289
Pastdarg‘om t.	282
Kattaqo‘rg‘on t.	243
Oqdaryo t.	175
Bulung‘ur t.	169
Urgut t.	151
Payariq t.	126
Jomboy t.	112
Paxtachi t.	109
Ishtixon t.	105
Samarqand sh.	104
Qo‘shrabot t.	98
Narpay t.	95
Toyloq t.	76
Kattaqo‘rg‘on sh.	42



O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta‘minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.

Baliq ovlash va akvakultura




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

Shahar va tumanlar kesimida

Samarqand sh.	1 121
Urgut t.	770
Samarqand t.	599
Pastdarg'om t.	398
Ishtixon t.	302
Toyloq t.	289
Jomboy t.	283
Kattaqo'rg'on t.	273
Oqdaryo t.	243
Kattaqo'rg'on sh.	217
Bulung'ur t.	217
Payariq t.	212
Paxtachi t.	182
Narpay t.	174
Qo'shrabot t.	141
Nurobod t.	124



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So'nggi uch yil ichida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarining sonining o'zgarish sur'ati 80,4 foizni tashkil etgan.


Sanoat korxonalarining soni jami korxonalar va tashkilotlarning 13,0 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 95,0 foizini ishlab chiqarish sanoati, 3,7 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 0,9 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish va 0,4 foizini elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.



Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda

Shahar va tumanlar kesimida

Samarqand sh.	785
Payariq t.	194
Pastdarg'om t.	181
Urgut t.	148
Samarqand t.	146
Oqdaryo t.	116
Toyloq t.	113
Kattaqo'rg'on t.	103
Kattaqo'rg'on sh.	99
Jomboy t.	97
Ishtixon t.	83
Narpay t.	68
Qo'shrabot t.	60
Bulung'ur t.	59
Paxtachi t.	56
Nurobod t.	47



Voliyatda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 60,0 foizni tashkil etgan;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 16,0 foizni tashkil etgan;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 24,0 foizni tashkil etdi.


377

Fuqarolik
obyektlarini qurish



567

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari



1 411

Bino va
inshootlar qurish

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

Shahar va tumanlar kesimida

Samarqand sh.	4 467
Samarqand t.	1 475
Pastdarg'om t.	1 323
Urg'ut t.	1 041
Payariq t.	853
Ishtixon t.	852
Toyloq t.	768
Bulung'ur t.	731
Kattaqo'rg'on t.	725
Oqdaryo t.	718
Jomboy t.	670
Narpay t.	643
Kattaqo'rg'on sh.	556
Paxtachi t.	512
Qo'shrabot t.	446
Nurobod t.	325



Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,7 foizi yoki 16 063 tasi kichik biznes subyektlari hissasiga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:


- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 71,2 foizni tashkil etgan;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 18,6 foizni tashkil etgan;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 10,2 foizni tashkil etdi.



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

Shahar va tumanlar kesimida

Samarqand sh.	422
Toyloq t.	65
Samarqand t.	64
Urgut t.	62
Ishtixon t.	50
Payariq t.	47
Nurobod t.	46
Oqdaryo t.	45
Pastdarg'om t.	44
Kattaqo'rg'on sh.	40
Jomboy t.	38
Bulung'ur t.	27
Kattaqo'rg'on t.	25
Narpay t.	22
Paxtachi t.	18
Qo'shrabot t.	12



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – 922 tasi yoki 89,7 foizi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki:

-97,2 foiz korxonalar sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri kelib, o'sish sur'ati 2023-yilning mos davriga nisbatan 103,4 foizni tashkil etdi;

-yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 2,0 foizni, o'sish sur'ati 125,0 foizni tashkil etdi;


-yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 0,8 foizini, o'sish sur'ati 112,5 foizni tashkil etdi.



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

Shahar va tumanlar kesimida

Samarqand sh.	1 324
Samarqand t.	306
Urgut t.	194
Pastdarg'om t.	180
Payariq t.	163
Kattaqo'rg'on t.	150
Jomboy t.	149
Toyloq t.	149
Ishtixon t.	135
Kattaqo'rg'on sh.	114
Oqdaryo t.	114
Bulung'ur t.	113
Narpay t.	113
Nurobod t.	71
Qo'shrabot t.	66
Paxtachi t.	52



2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 3 393 tani tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

-yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 12,7 foiz ulushini mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar tashkil etmoqda;

-87,3 foiz ulushini esa oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar tashkil etmoqda.


430

Yashash bo'yicha
xizmatlar




2 963

Oziq-ovqat va
ichimliklar yetkazish
bo'yicha xizmatlar




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari to'g'risida ma'lumotlar

(2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida jamiga nisbatan ulushi




Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlarining viloyatga nisbatan ulushi Samarqand shahrida (29,0 foiz), Samarqand (9,3 foiz), Urgut (7,5 foiz) va Pastdarg'om (7,3 foiz) tumanlarda faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki, ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar to'g'risida ma'lumotlar (2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'mmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat


jamiga nisbatan ulushi




Qurilish




Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Oilaviy korxonalar – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonalar ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxonalar ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra 2023-yilning mos davriga nisbatan 681 taga kamayganligini ko'rishimiz mumkin.

Tumanlar kesimida


Samarqand sh.	1 878	Urgut t.	388
Samarqand t.	888	Bulung'ur t.	341
Pastdarg'om t.	801	Narpay t.	314
Payariq t.	632	Oqdaryo t.	295
Kattaqo'rg'on t.	466	Paxtachi t.	140
Toyloq t.	462	Kattaqo'rg'on sh.	124
Jomboy t.	423	Qo'shrabot t.	106
Ishtixon t.	423	Nurobod t.	48

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida ma'lumot


2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni


Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'mon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat




Qurilish




Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan 42 485 ta tijorat korxonalar va tashkilotlarining 23 213 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Tumanlar kesimida


Samarqand sh.	7 948	Bulung'ur t.	972
Samarqand t.	2 240	Nurobod t.	902
Urgut t.	1 745	Jomboy t.	852
Pastdarg'om t.	1 349	Toyloq t.	820
Kattaqo'rg'on t.	1 021	Ishtixon t.	748
Payariq t.	1 014	Qo'shrabot t.	653
Oqdaryo t.	995	Paxtachi t.	547
Kattaqo'rg'on sh.	985	Narpay t.	422

Faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar to'g'risida ma'lumotlar

2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida


jamiga nisbatan ulushi



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat




Qurilish




Savdo



Tashish va saqlash




Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Xususiy korxonalar – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan 82,9 foizni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida


Samarqand sh.	780	Samarqand t.	261
Urgut t.	581	Jomboy t.	246
Ishtixon t.	546	Kattaqo'rg'on t.	212
Pastdarg'om t.	500	Bulung'ur t.	187
Narpay t.	465	Nurobod t.	135
Toyloq t.	417	Kattaqo'rg'on sh.	118
Paxtachi t.	350	Qo'shrabot t.	114
Oqdaryo t.	270	Payariq t.	97

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida


jamiga nisbatan ulushi



Qishloq, o'mon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat




Qurilish




Savdo




Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg'armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo'linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Shahar va tumanlar kesimida

Samarqand sh.	274	Ishtixon t.	15
Urgut t.	43	Kattaqo'rg'on sh	14
Jomboy t.	34	Kattaqo'rg'on t.	14
Samarqand t.	31	Payariq t.	12
Pastdarg'om t.	29	Nurobod t.	12
Oqdaryo t.	27	Toyloq t.	11
Qo'shrabot t.	22	Paxtachi t.	10
Bulung'ur t.	19	Narpay t.	4

Davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar to'g'risida ma'lumot

2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda

xorijiy korxonalar

qo'shma korxonalar



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnihilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 303 tasi qo'shma korxonalar, 268 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Xitoy Xalq Respublikasi



Rossiya Federatsiyasi



Qozog'iston Respublikasi



Turkiya Respublikasi



Janubiy Koreya



Boshqa davlatlar

**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Samarqand viloyati	571	303	268
Samarqand sh.	274	119	155
Kattaqo'rg'on sh.	14	10	4
tumanlar			
Oqdaryo	27	13	14
Bulung'ur	19	9	10
Jomboy	34	22	12
Ishtixon	15	9	6
Kattaqo'rg'on	14	8	6
Qo'shrabot	22	8	14
Narpay	4	3	1
Payariq	12	5	7
Pastdarg'om	29	19	10
Paxtachi	10	7	3
Samarqand	31	20	11
Nurobod	12	8	4
Urgut	43	35	8
Toyloq	11	8	3

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Samarqand shahrida 274 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 47,9 %), Urgut 43 ta (7,5 %), Jomboy 34 ta (5,9 %), Samarqand 31 ta (5,4 %), Oqdaryo 27 ta (4,7 %) ni tashkil etadi.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.